

“TARAQQIYOT STRATEGIYASI” DOIRASIDA “KITOBSEVAR MILLAT” UMUMMILLIY G‘OYASINI SHAKLLANTIRISH

Avatova Dilrabo Shamsiddin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini shakllantirish haqida so‘z yuritiladi. Kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, kitob chop etishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishda rivojlangan davlatlar tajribasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Taraqqiyot strategiyasi, Kitobsevar millar, kitobxonlik, Kitob ko‘rgazmasi, Butunjahon kitobsevarlar kuni.

**“Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq
birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati,
yuksak ma‘naviyati bilan qudratlidir. Bunday
yengilmas kuch manbai esa insoniyat tafakkurining
buyuk kashfiyot – kitob va kutubxonalaridir”.**

SH.M.Mirziyoyev

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar hayotimizning barcha sohalarida samara bermoqda. **Mamlakatimiz poytaxtida 2022- yilning 2-4 noyabr kunlari “Tashkent Book Fest–2022” xalqaro kitob ko‘rgazma-yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbir O‘zbekiston Prezidentining “Besh tashabbus” loyihasi hamda “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni doirasida tashkil etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad yoshlarni kitobxonlik salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashni istardikki, ota-onalar muntazam ravishda o‘z farzandlarini kitob do‘konlariga olib borishlari, ularning kutubxonaga qatnashini rag‘batlantirishlari zarur. Ayniqsa, insonlarning bir-biriga kitob sovg‘a qilishi an‘anasini keng joriy qilish kerak.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusning to‘rtinchisi sifatida yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni

keng targ'ib qilish belgilangan. Shu negizda ayni yo'nalishda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtboshimiz rahbarligida ishlab chiqilgan va hayotimizga izchil tatbiq etilayotgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur dasturilamal hujjat kitobxonlikni keng targ'ib qilish yo'nalishidagi ma'rifiy chora-tadbirlarning ham mantiqiy davomi hisoblanadi.

Taraqqiyot strategiyasida 100 dan ortiq ustuvor yo'nalish belgilab berilgan. Jumladan, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish, xalqimizni yuqori sifatli kitob va bosma mahsulotlar bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

“2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 72-maqсадida aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umum milliy g'oyasini ro'yobga chiqarish nazarda tutilgan.

Bu haqda so'z borganda, Prezidentimizning tashabbusi bilan 2017-2021- yillarda tatbiq etilgan Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda noshirlik, adabiyot, kutubxona va kitobxonlik sohalarini rivojlantirishga qaratilgan o'nga yaqin farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilinganini ta'kilash lozim. Ayniqsa, 2021-yil 26-noyabrda “Noshirlik faoliyati to'g'risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilingani soha taraqqiyotida alohida o'rin tutib kelmoqda.

Darhaqiqat, dunyo miqyosida har yili 9-avgust “Butunjahon kitobsevarlar kuni” nishonlanadi. Kitobsevarlar kuni dastlab AQSHda norasmiy tarzda nishonlab kelingan. Keyinchalik ayni shu milliy an'ana dunyoning turli mamlakatlari kitobxonlari orasida ommalashdi. Kitob va mutolaada gap ko'p. Sharqda va G'arbda insoniyatni yuksak taraqqiyot sari boshlagan Renessanslarnig barchasi kitob yozish va tarqatish, kutubxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, turli tillardan turfa asarlarni tarjima qilish hamda o'qish va o'rganishdek qamrovdor ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda tayangani shubhasiz. Kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuchdir. U insoniyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy-ma'rifiy olami, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib berishga qodir mash'ala hisoblanadi. Haqiqatan ham, kitob o'qigan inson qaysi sohada ishlamasin, teran fikrlash, oq-u qorani ajratish, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, kitobxonlik buyuk kelajak kafolatidir.

Kitobxonlik aslida buyuk kelajak uchun kafolat bo'lganidek, yoshlarni kitobni sevishga, yosh kitobxon mamlakat darajasiga chiqishi yo'lida amalga oshirilishi lozim bo'lgan masalalarga qaratilgan tushuntirish ishlari olib borilishi, milliy asarlar va

xorijiy asarlarni taqqoslash, hurmat va e'tibor bilan qarashlari va asarni tugatib sevib o'qishga erishishlariga qiziqtirib kitoblarning qaysi biri yoqqanligi, qaysi jihati bilan ajralib turishi, asar qahramonlari borasidagi taassurotlari haqida fikrlashib ular bilan yaqin munosabatni shakllantirib kelajak davomchilaridan buyuk daholar chiqishini ta'minlash har bir insonning burchidir.

Mamlakatimizda "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" shiori ostida har yili "**Kitob bayrami**" tadbirlarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Ushbu ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, akademik Akmal Saidov ta'kidlaganidek, davlat tomonidan adabiyotni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor va erishilayotgan natijalarni keng jamoatchilikka yetkazish, xalqimiz, jumladan, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ijodkorlar va kitobxonlar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash, kitobga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplashda o'z samalarini bermoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, Sohibqiron Amir Temur bobomiz ta'biri bilan aytganda, "Kitob (bitik) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir", ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda, biz yoshlar kitob mutolaasi orqali nafaqat bilim olib, dunyoqarashimizni munosib shakllantirishimiz bilan birga intellektual salohiyatimizni oshirib borishimiz, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida, hech shubhasiz o'z o'rnimiz va kelgusida dunyo miqyosida kitobsevar millat bo'lishimizga ishonchim komil. Chunki biz – buyuk davlat, buyuk tarix, buyuk madaniyat yaratgan xalqimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi 29.01.2022 PF-60-son
- 2.Lex.uz Qonunchilik milliy portal
- 3.Marifat targ'ibotchilar jamiyat elektron sahifasi
- 4.Yuksalish umummilliy harakati rasmiy sahifasi
- 5.O'zbekiston yoshlar ittifoqi kitobxonlikni targ'ib etish dasturlari